

Shavkat Mirziyoyev: Bu korxona - tarixiy an'analarning sanoat darajasida qayta tiklanishi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 6-mayda Farg'onada viloyatida bo'lganida toshdan qog'oz ishlab chiqarish loyihasi taqdimot qilingan edi. Bugungi kunda ushbu loyiha Farg'ona shahrida «Fergana stone paper» korxonasi bo'lib amalga oshdi.

Xitoydan noyob texnologiya olib kelinib, yiliga 9 ming tonna qog'oz tayyorlash quvvati tashkil etildi. Prezident tashrifi arafasida ushbu korxona sinov rejimida ishga tushirildi.

Toshdan yasalgan qog'oz bir qancha afzalliklarga ega. Birinchidan, sellyuloza qog'oz tayyorlash uchun juda ko'p suv sarflanadi, zaharli moddalar borligi tufayli bu suv yaroqsiz bo'lib qoladi. Toshdan qog'oz ishlab chiqarishda esa suv ishlatilmaydi.

Ikkinchidan, mustahkamligi, chidamliligi oddiy qog'ozga nisbatan yuqori. O'zidan suv o'tkazmaydi, dog'yuqmaydi. Shu bois toshdan olingan qog'oz matbaachilikda, qadoq va gulqog'oz ishlab chiqarishda juda qulay. Tashqi bozorda xaridorgir.

Korxonada 60 kishi ish bilan ta'minlandi. Davlatimiz rahbari ish jarayonini, qog'oz sifatini ko'rdi.

- Qog'oz tayyorlash qadimiylar hunarmandlik yo'nalishlarimizdan biri. O'z davrida Samarqand qog'ozini dunyoga mashhur bo'lgan. Bu korxona - tarixiy an'analarning sanoat darajasida qayta tiklanishi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilayotgan import o'rnini bosuvchi sanoat mahsulotlarini ham ko'zdan kechirdi.

Manba